

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA MILLATLARARO KOMMUNIKATIV
MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA
METODOLOGIK ASOSLARI**

Ma'mun universiteti

“G'arb tillari va adabiyoti” kafedrasi katta o'qituvchisi

Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili ta'lim yo'nalishi

25/8 – guruh talabasi Yusupova Shohsanam Arifjon qizi

Annotation: *In higher education, it is crucial that students develop the communication skills they need to interact with people from other cultural backgrounds. Through the development of communicative competence, students learn about the key areas of studying a foreign language and culture and also acquire the capacity to use language naturally, fluently, and accurately in a variety of cultural contexts. This article offers a thorough analysis of both the theoretical and practical aspects of intercultural communication as well as the crucial function that interethnic communication plays in society in higher education institutions.*

Key words: *communication, interethnic cooperation, tolerance, social integration, intercultural communication.*

Annotatsiya: *Talabalarning turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot olib borishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish oliy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish orqali talabalar turli madaniy kontekstlarda til vositalaridan tabiiy, ravon va aniq foydalanish qobiliyatini shakllantirib, chet tili va madaniyatini o'rganishning ustuvor yo'nalishlari haqida bilimaga ega bo'ladi. Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida millatlararo muloqot jarayonining jamiyatdagi ajralmas o'rnini, shu bilan birga, madaniyatlarda muloqotning nazariy va amaliy tomonlarini keng yoritib beradi.*

Kalit soʻzlar: kommunikatsiya, millatlararo hamkorlik, tolerantlik, ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo muloqot.

KIRISH

Hozirgi davrda talabalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Shu bois kadrlar tayyorlash jarayonida kommunikativ bilim va amaliy koʻnikmalarni takomillashtirishni yangi sifat bosqichiga olib chiqish hamda mazkur yoʻnalishdagi ta'limiy islohotlarni jadallashtirish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, chunki globallashtirish jarayoni, akademik mobillikning kengayishi hamda xalqaro ta'lim integratsiyasi oliy ta'lim muassasalarini koʻpmadaniyatli ijtimoiy makonga aylantirmoqda. Bugungi kunda talaba nafaqat oʻz milliy muhitida, balki turli madaniyat vakillari bilan bevosita muloqot qiladigan global kommunikativ makonda faoliyat yuritmoqda. Shu sababli millatlararo kommunikativ madaniyatni shakllantirish masalasi pedagogikaning dolzarb ilmiy yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Oliy ta'lim jarayonida millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bu talabalarning turli madaniy qadriyatlar tizimi doirasida muloqot olib borish, ijtimoiy moslashuvchanlik va tolerantlikni namoyon etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan konseptual-pedagogik tizim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Millatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir koʻplab taqdiqot ishlari olib borilgan. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor tilshunos Dell Xayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u “tilni bilish - bu faqat grammatik qoidalarni egallash emas, balki uni muayyan ijtimoiy vaziyatda toʻgʻri va maqbul qoʻllay olish qobiliyatidir” degan gʻoyani ilgari suradi. Olimning fikricha, nutqning adekvatligi uning kontekstga mosligi bilan belgilanadi [1].

Keyinchalik Kanadalik tilshunoslar Maykl Kanale va Merill Sveyn kommunikativ kompetensiyani toʻrt tarkibiy qismga ajratadi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiya. Ularning taʼkidlashicha,

“kommunikativ kompetensiya til tizimini bilish va uni real muloqot jarayonida qo‘llash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligidan iborat”[2]. Ushbu model oliy ta’lim tizimida kommunikativ madaniyatni shakllantirishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amerikalik mashhur madaniyatshunos olim E. T. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida yuqori va past kontekstli madaniyatlar konsepsiyasi alohida o‘rin egallab, ushbu madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni asoslab bergan. U “Madaniyat - bu kommunikatsiya, kommunikatsiya esa madaniyatdir” degan g‘oyani ilgari suradi. Bu yondashuv turli millat vakillari o‘rtasidagi kommunikativ tafovutlarni tushuntirishga xizmat qiladi [3].

Yevropa ta’lim tizimida kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish mezonlari Council of Europe tomonidan ishlab chiqilgan “Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)” hujjatida belgilangan. Unda ta’kidlanishicha, til ta’limining asosiy maqsadi shaxsni ko‘pmadaniyatli jamiyatda samarali muloqotga tayyorlashdan iborat [4].

Millatlararo hamkorlik aqliy va tafakkur jihatdan talabalarni tenglikka chorlaydi hamda ular bilan do‘stona kommunikatsiya, hamkorlik kabi ustuvor talablarni o‘zida aks ettiradi. Shu jumladan, mazkur hodisa an’anaviy va madaniy ko‘nikmalarni ulashishga qulay usul hisoblanadi va talabalarda individuallilikni, do‘stona kayfiyatni o‘zida mujassam qiladi. Maqolani yozish jarayonida tadqiqot metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, kuzatish hamda pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar tahlili orqali millatlararo muloqot madaniyatining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari va ta’lim jarayonidagi ahamiyati o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Kuzatish metodi yordamida oliy ta’lim muassasalari talabalarining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya darajasi, tolerantlik ko‘rsatkichlari hamda millatlararo muloqotga munosabati aniqlashtirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish talabalarning ijtimoiy faolligi,

tolerantlik darajasi hamda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida yosh avlod ongiga tinch-totuvlik, insoniylik, hurmat va o'zaro ishonch kabi yuksak g'oyalarni singdirish bizning eng dolzarb vazifamiz ekanligini ta'kidladi. Prezident talabalar va yoshlar orasida madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, bag'rikenglik hamda turli xalqlar o'rtasida ochiq dialogni rivojlantirish zarurligini qayd etdi. Shu bois u yoshlar uchun tinchlik bo'yicha butunjahon harakatini tashkil etishni taklif qildi va uning markazi O'zbekiston bo'lishini taklif etmoqda. Shuningdek, davlat rahbari doimiy ravishda bag'rikenglik siyosatini davom ettirish, jamiyatda tolerantlikni mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish bo'yicha amaliy tashabbuslarni keng jahon hamjamiyatiga yetkazishni maqsad qilganligini bildirdi"[5].

Meksikalik professorlar Guillén-Yparrea va Ramírez-Montoya tomonidan 2016-2021-yillarda olib borilgan ilmiy ishlari asosan **oliy ta'lim muassalarida millatlararo kompetensiyalarni aniqlash, ularni metodik tahlil qilish va ilg'or amaliyotlar bo'yicha sistematik tasniflash**ga qaratilgan. Ularning eng muhim hissasi millatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni umumlashtirib, **ta'limda innovatsion yo'nalishlar va o'quv metodlarini aniqlash** bilan bog'liq edi [6]. Shuni aytish joizki, yoshlar orasida kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillarga bog'liq. Xususan, ta'lim muhitidagi ijobiy psixologik muhit, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi samarali muloqot, shuningdek, tarbiyaviy faoliyatning tizimli tashkil etilishi ushbu jarayonning muhim shartlaridan hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu omillarning uyg'unlashuvi yoshlarning muloqot jarayonida ochiqlik, hamkorlik va bag'rikenglik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Bugungi globallashuv shatoitida oliy ta'lim tizimida millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy totuvlikning ta'minlashning muhim omillaridan biri

sanaladi. Madaniyatlararo muloqot talabalarning ijtimoiy faolligi, tolerantlik darajasi hamda kommunikativ kompetensiyakarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan amaliy va nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida millatlararo muloqotni rivojlantirish uchun faqatgina bilim berish yetarli emas, balki interaktiv metodlar, madaniyatlararo loyihalar, treninglar va hamkorlikka asoslangan ta'lim yondashuvlarini tizimli ravishda joriy etish zarur. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni ochiq fikrli, bag'rikeng va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan izchil pedagogik faoliyat va ilmiy yondashuvlar kelajakda jamiyat taraqqiyoti va madaniyatlararo totuvlikni mustahkamlashga mustahkam zamin yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hymes D. On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293), Penguin Books.1972.
2. Canale, M., & Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1-47.1980.
3. Hall, E. T. *Beyond culture*. Anchor Books.1976.
4. CEFR. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. Cambridge: Cambridge University Press. 2001.
5. Mirziyoyev Sh.M Yoshlar siyosati va bag'rikenglik masalalariga oid nutqlari.-Toshkent,2022
6. Guillén-Yparrea, N.,&Ramirez-Montoya, M.S. Intercultural competencies in higher education:A system review from 2016-2021// Cogent Education.-2023.
7. Huang C. Strategies for cultivating intercultural communicative competence in university English teaching// Academic Journal of Humanities& Social Sciences-2024.
8. Byram,M Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence.- Clevedon: Multilingual Matters,1997